

**INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI  
(O‘ZBEKISTON VA YEVROPA TAJRIBASI)**

To‘lqinova Visola Ulug‘bek qizi  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi  
E-mail: visolatolqinova05@gmail.com

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada inson huquqlarini ta‘minlashda zamonaviy yondashuvlar, ularning huquqiy asoslari, amaliyotda qo‘llanilishi, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston Respublikasi tajribasi misolida huquqiy tahlil asosida o‘rganiladi. Xalqaro standartlar asosida shakllangan qadriyatlar, institutsional mexanizmlar, raqamli texnologiyalarning inson huquqlarini ta‘minlashdagi o‘rni va bu boradagi islohotlar qiyosiy tahlil qilinib, fikr va mulohazalar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** inson huquqlari, ombudsman, Yevropa Ittifoqi, O‘zbekiston, sud, raqamli huquq, sun‘iy intellekt, migratsiya.

**Аннотация:**

В данной статье на основе правового анализа рассматриваются современные подходы к обеспечению прав человека, их правовые основы, практика применения, существующие проблемы и пути их решения на примере опыта Европейского Союза и Республики Узбекистан. Проводится сравнительный анализ ценностей, сформированных на основе международных стандартов, институциональных механизмов, роли цифровых технологий в обеспечении прав человека, а также реформ в данной сфере. По итогам исследования излагаются соответствующие выводы и предложения.

**Ключевые слова:** права человека, омбудсман, Европейский Союз, Узбекистан, суд, цифровые права, искусственный интеллект, миграция.

**Abstract:**

This article examines modern approaches to ensuring human rights, their legal foundations, practical implementation, existing challenges, and ways to address them through a legal analysis based on the experiences of the European Union and the Republic of Uzbekistan. The study provides a comparative analysis of values shaped by international standards, institutional mechanisms, the role of digital technologies in ensuring human rights, and ongoing reforms in this field. Relevant conclusions and recommendations are presented based on the findings of the research.

**Keywords:** human rights, ombudsman, European Union, Uzbekistan, court, digital rights, artificial intelligence, migration.

**KIRISH**

Inson huquqlari bu har bir inson tug‘ilganidan boshlab egalik qiladigan ajralmas va daxlsiz huquqlar majmuasidir. Ular inson sha‘ni, erkinligi va adolat tamoyillariga asoslanadi. Inson huquqlari har qanday demokratik jamiyatning asosiy tayanchi bo‘lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularni

ta'minlash va ilgari surish davlatning ustuvor vazifasidir. So'nggi o'n yilliklarda inson huquqlarini ta'minlash masalasi global darajadagi dolzarb mavzuga aylangani barchamizga ma'lum. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson huquqlarini ta'minlashga oid yondashuvlar tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy tengsizlik va xavfsizlik muammolari fonida inson huquqlarini himoya qilishda yangi yondashuvlarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, inson huquqlari endilikda faqat konstitutsiyaviy kafolatlar bilan emas, balki zamonaviy texnologiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro mexanizmlar orqali ta'minlanmoqda. Yevropa Ittifoqi ushbu borada eng ilg'or hududlardan biri bo'lib, inson huquqlarini institutsional himoya qilishda ilg'or tajriba hamda mustahkam huquqiy asosga ega. O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlashda izchil va bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirib, xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan salmoqli natijalarga erishmoqda.

## **ASOSIY QISM**

Inson huquqlari haqida fikr yuritar ekanmiz, mazkur tushuncha dastavval qadimiy davrlardagi "tabiiy huquqlar" nazariyasidan boshlab, G'arb Yevropasida yuridik shakl kasb etgan Magna Charta (1215), Fransiya Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi (1789), AQSH Mustaqillik deklaratsiyasi (1776) kabi hujjatlar orqali asta-sekin bugungi universal mezonlar darajasiga yetdi. Xalqaro miqyosda esa inson huquqlari birinchi marta rasmiy ravishda 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlandi. Keyinchalik bu asosiy tamoyillar 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, shuningdek, mintaqaviy konvensiyalar (Yevropa inson huquqlari konvensiyasi, Afrika inson va xalqlar huquqlari xartiyasi va boshqalar) bilan mustahkamlandi. XXI asrga kelib, inson huquqlari masalasi nafaqat huquqiy, balki siyosiy, ijtimoiy va texnologik omillar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Zamonaviy yondashuvlar quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Jumladan, inson huquqlari bir butun tizim bo'lib, ular ajralmas va bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Barcha insonlar, millatidan, jinsidan, dinidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. BMT tomonidan qabul qilingan hujjatlar ushbu prinsipni universal deb tan olgani muhim ahamiyatga ega. Diskriminatsiyaga yo'l qo'yimaslik tamoyili barcha shakldagi kamsitishlar – irqiy, diniy, etnik, jinsiy, yosh, nogironlik yoki boshqa ijtimoiy holatlarga asoslangan kamsitishlarga qarshi kurashishni anglatadi. Xalqaro huquqning muhim manbalaridan bo'lgan Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya (1965) va Ayollarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979) bu yo'nalishda belgilangan qoidalarni ta'minlashda asosiy vositalardir. Bundan tashqari, davlat inson huquqlarining eng muhim kafolatchisi hisoblanadi. U nafaqat huquqiy himoyani ta'minlashi, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarning ro'yobga chiqishini ham qo'llab-quvvatlashi zarur. Bu "hurmat qilish, himoya qilish va ta'minlash" majburiyatlari shaklida talqin qilinadi. Huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurishda fuqarolik jamiyati institutlari (NNTlar, mustaqil OAV, kasaba uyushmalari va boshqalar) muhim o'rin tutadi. Ular inson huquqlari buzilishiga qarshi monitoring yuritadi, huquqiy madaniyat va huquqiy ongni oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot sharoitida inson huquqlarining yangi o'lchamlari vujudga keldi. Jumladan, raqamli huquqlar, internet erkinligi, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi zamonaviy inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu borada xalqaro maydonda Yevropa Ittifoqining "Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR)" zamonaviy standart sifatida tan olinmoqda.

E'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan holatlardan biri shundaki, zamonaviy nazariyalarda inson huquqlari faqat huquqiy deklaratsiyalar bilan cheklanib qolmasdan, ular ijtimoiy tenglik, iqtisodiy adolat, ekologik xavfsizlik,

gender tenglik, madaniy huquqlar va shaxsiy erkinliklar bilan bog‘liq kompleks tizim sifatida qaralmoqda. Jumladan, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) inson huquqlarining ijtimoiy-iqtisodiy o‘lchamlariga bevosita taalluqli va mazkur tamoyil bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyat ishtirokchilariga o‘z pozitsiyasini namoyon qilib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosi hisoblanadi. Shuningdek, gender tengligini ta‘minlashda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik nafaqat huquqiy, balki amaliy darajada ham qo‘llanilmoqda. Yangi texnologiyalar inson huquqlarini amalga oshirishda yangi imkoniyatlar bilan birga xavf tug‘dirmoqda. Bu borada esa xalqaro tartibotlar ishlab chiqilmoqda.

Inson huquqlarini ta‘minlashda Yevropa Ittifoqi olib borayotgan siyosat va amaliy tajriba haqida so‘z yuritar ekanmiz, Yevropa Ittifoqi (YI) inson huquqlarini ta‘minlashda kuchli huquqiy asoslarga ega. Asosiy normativ huquqiy hujjatlardan biri Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi (ECHR, 1950) bo‘lib, bu hujjat Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan. YIga a‘zo aksariyat davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiya inson sha‘ni, erkinligi, sudga murojaat qilish huquqi, fikr, vijdon, din erkinligi kabi asosiy huquqlarni kafolatlaydi. Yevropa Ittifoqining Fundamental huquqlar Xartiyasi (2000) esa 2009-yilda Lissabon shartnomasining kuchga kirishi bilan mazkur Xartiya barcha a‘zo davlatlar uchun majburiy kuchga ega hujjatga aylangan. U ECHR huquqlarini takrorlash bilan birga, zamonaviy muammolar – masalan, ma‘lumotlar himoyasi, biologik va genetik tadqiqotlar, texnologik xavfsizlik, muhojirlar huquqlarini ham qamrab oladi.

Yevropa Ittifoqining Inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish borasida olib borayotgan siyosatida amaliy mexanizmlar va institutsional kafolatlar muhim o‘rin tutadi. Xususan, Strasburgda joylashgan Yevropa inson huquqlari sudi Yevropa bo‘ylab inson huquqlari buzilishi bo‘yicha yakuniy apellyatsiya organi hisoblanadi. Aholi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki milliy sudlar orqali ushbu sudga murojaat qilishi mumkin. Avstriyaning Vena shahrida joylashgan Yevropa Ittifoqi Fundamental Huquqlar Agentligi (FRA) inson huquqlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar to‘plash, tadqiqotlar o‘tkazish va siyosiy tavsiyalar berish bilan shug‘ullanadi. Xalqaro nohukumat tashkilotlar (HRW, Amnesty International) ham Yevropada inson huquqlarini ta‘minlashda asosiy vositalardan hisoblanib, ular mustaqil monitoring, hisobotlar va jamoatchilik bosimi orqali davlatlarni inson huquqlarini hurmat qilishga majbur qiladi. Mashhur siyosat arbobi Nelson Mandelaning erkinlik har bir insonning to‘g‘ri huquqidir, va buni himoya qilish uchun kurashish - bu bizning burchimiz degan fikri Yevropa Ittifoqining inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirishdagi maqsadlarini aks ettiradi.

Inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilishda Yevropa Ittifoqi tajribasining ilg‘or jihatlari va amaliy muammolar ahamiyatga molik. Xususan, barqaror va sanksiyalanadigan huquqiy muhit orqali YI a‘zolari qonun ustuvorligi va inson huquqlariga sodiqlikni doimiy ravishda yangilab boradigan qonunchilikka ega. Sud qarorlarining ijrosi majburiy bo‘lib, har bir davlatni inson huquqlari borasidagi mas‘uliyatni his etadi. Diskriminatsiyaga qarshi aniq yondashuv esa jinsi, irqi, dini, nogironligi yoki jinsiy orientatsiyasi sababli diskriminatsiyaga yo‘l qo‘yilmasligini ta‘minlaydi. Masalan, “Racial Equality Directive” va “Employment Equality Directive” orqali ish joylarida teng imkoniyatlar kafolatlanadi. YI butun dunyo bo‘ylab ma‘lumotlarni himoya qilishda ilg‘or hisoblanadi. Masalan, GDPR har bir shaxsga o‘z shaxsiy ma‘lumotlari ustidan nazoratni beradi, ularga uni ko‘rish, tuzatish yoki o‘chirish huquqini kafolatlaydi.

Inson huquqlarini ta‘minlashda Yevropa Ittifoqi duch kelayotga amaliy muammolar sirasida migratsiya inqirozi va noinsoniy munosabatlar dastlabki o‘rinlarda turadi. Suriyadagi urush, Afg‘onistondagi beqarorlik, Afrika mamlakatlaridan kelgan muhojirlar oqimi YI chegaralarida inson huquqlari bilan bog‘liq jiddiy muammolarni yuzaga keltirdi. Ayrim hollarda muhojirlar noqonuniy ravishda deportatsiya qilindi yoki

insoniy sharoitlardan mahrum etildi. Masalan, Gretsiya va Italiya qabul markazlarida yashash sharoitlari yuzasidan Yevropa sudi bir necha bor inson huquqlari buzilganini e'tirof etgan. Bundan tashqari terrorizmga qarshi kurashda huquqlar cheklanishi odatiy holga aylandi. 2015-yildagi Parijdagi va boshqa yirik hujumlardan so'ng xavfsizlik choralarining kuchaytirilishi fuqarolarning maxfiylik, erkin harakat va so'z erkinligiga ta'sir ko'rsatdi. Ayrim davlatlarda favqulodda holat doimiy tus oldi, bu esa konstitutsion huquqlarni chekladi. YI sun'iy intellektdan foydalangan holda yuzni tanish, xulqni tahlil qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimlarini sinovdan o'tkazmoqda. Biroq bu texnologiyalar insonning shaxsiy hayotiga aralashish, noto'g'ri profilingga yo'l qo'yish xavfini tug'diradi. Huquqiy jihatdan AI texnologiyalarini qonuniy nazoratga olishga doir yagona yondashuv hozircha mavjud emas. Bu esa "texnologik inson huquqlari" degan yangi sohani yuzaga keltirmoqda.

Fikrimizcha, Yevropa Ittifoqi inson huquqlarini huquqiy jihatdan kafolatlashda dunyodagi eng rivojlangan mintaqalardan biri hisoblanadi. U barqaror huquqiy asos, mustaqil sud tizimi, kuchli monitoring institutlari orqali inson sha'ni va erkinliklarini himoya qiladi. Shu bilan birga, hozirgi global muammolar – migratsiya, terrorizm, texnologik nazorat kabi sohalarda inson huquqlariga tahdid soluvchi holatlar ham mavjud. Bu esa inson huquqlarini zamonaviy sharoitda qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirmoqda.

Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi inson huquqlari bo'yicha ilg'or tamoyillarni mustahkamladi. Xususan, Konstitutsiyaning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etadi va unga xizmat qiladi" degan qoidaning mustahkamlanishi orqali, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining markaziga aylandi. 13- va 14-moddalarda insonning sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, 18- va 19-moddalar har bir fuqaroning qonun oldida tengligi, diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi va davlat tomonidan kafolatlangan himoya huquqini belgilab beradi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, 2020-yil 22-iyun kuni "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi (2020–2025)"ning qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilishning tizimli asosini yaratdi. Mazkur strategiyada 80 dan ortiq chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ular sud-huquq islohotlari, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining erkinligi, gender tengligi, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash kabi yo'nalishlarni qamrab olgan. O'zbekiston o'z siyosatida inson huquqlarini himoya qilishda mustaqil sud hokimiyatining rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. 2017-yildan boshlab olib borilgan sud-huquq islohotlari doirasida sudlarning institutsional mustaqilligi ta'minlanmoqda. Sudyalarning hayot davomiyligiga tayinlanishi, ularni intizomiy javobgarlikka tortish tartibining qat'iy belgilanishi, prokuratura va tergov organlari ustidan sud nazoratining kuchaytirilishi insonning shaxsiy huquqlari va adolatli sud muhokamasi huquqini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishini inson huquqlarini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ko'radi. 2019-yilda "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun yangidan tahrir qilinib, NNTlar faoliyati uchun huquqiy sharoitlar yengillashtirildi. Bugungi kunda inson huquqlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan NNTlar, xususan, "Ezgulik", "Huquqiy Tayanch", "Madad" tashkilotlari bevosita jamiyatdagi huquqbuzarliklarga qarshi monitoring olib borish va muammolarni hal qilishda hukumatga hamkorlik qilmoqda. Axborot erkinligi ham inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida O'zbekistonda siyosiy islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Matbuot va jurnalistlarning faolligi ortib borayotgani, shuningdek, tanqidiy chiqishlarga nisbatan tolerantlikning oshgani jamiyatda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatning ortishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zozligiga saylanib, xalqaro maydonda inson huquqlariga sodiqligini namoyon etdi. BMTning 10 dan ortiq konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan bo'lib, jumladan:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948);
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966);
- Qiynoqlarga qarshi konvensiya (1984);
- Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989).

Yaqin yillarda O'zbekiston Inson huquqlari bo'yicha BMT Mexanizmlariga (UPR, shikoyat tartiblari, maxsus ma'ruzachilar) faol tarzda hisobot taqdim etib kelmoqda. Mamlakat tomonidan ochiqlik va konstruktiv hamkorlik tamoyillariga asoslangan yondashuv xalqaro hamjamiyatda ijobiy baholanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqi anjuman ishtirokchilari tomonidan e'tirof etilgani mazkur sohada erishilgan salmoqli yutuqlarimizdan biri.

O'zbekiston gender tengligi, nogironligi bo'lgan shaxslar, bolalar va mahbuslar huquqlarining kafolatlanishiga alohida e'tibor qaratmoqda. 2019-yilda "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi gender siyosatini davlat darajasida muvofiqlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, 2021-yilda "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" ratifikatsiya qilinib, ushbu qatlamga mansub shaxslarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki mustahkamlanmoqda. 2020-yilda qiynoqlarga qarshi kurashish bo'yicha Ombudsman instituti doirasida "milliy preventiv mexanizm" joriy etilib, qamoqxonalarda inson huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilgan monitoring ishlari kuchaytirildi.

Bizningcha, O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlash borasida siyosiy iroda, huquqiy asos va institutsional mexanizmlarni uyg'unlashtirib, yangilanish yo'lida izchil harakat qilmoqda. Konstitutsiyaviy islohotlar, xalqaro standartlarga moslashtirilgan qonunchilik, sud-huquq tizimining modernizatsiyasi va fuqarolik jamiyatining faollashuvi O'zbekiston tajribasining ajralmas qismidir. Bugungi kunda mamlakat inson huquqlari sohasida "ochiqlik, hisobdorlik va hamkorlik" tamoyillariga asoslanib, barqaror demokratik davlatga xos institutlarni mustahkamlab bormoqda.

Yevropa Ittifoqi inson huquqlarini muhofaza qilishda yillar davomida shakllangan institutlar va xalqaro mexanizmlarga tayanadi. O'zbekistonda esa ushbu sohada kuchli, tizimli islohotlar boshlagan. Zamonaviy yondashuvlar inson huquqlarini nafaqat klassik konstitutsiyaviy kafolatlar, balki texnologik, institutsional va madaniy islohotlar orqali ta'minlashni talab qilmoqda. Yevropa Ittifoqi tajribasi inson huquqlari sohasida ilg'or modellarni taqdim etsa, O'zbekiston ularni ehtiyotkorlik bilan moslashtirish orqali milliy huquqiy tizimini rivojlantirish yo'lida harakat qilmoqda.

## **XULOSA**

Olib borilgan qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini ta'minlash masalasi bugungi kunda faqat qog'ozdagi deklaratsiyalar bilan emas, balki ishlayotgan institutlar, mustaqil sudlar, kuchli fuqarolik jamiyati va samarali xalqaro hamkorlik mexanizmlari orqali hal qilinmoqda. Yevropa Ittifoqi tajribasi bu haqiqatni yaqqol tasdiqlaydi: Yevropa Inson Huquqlari Sudi, Fundamental Huquqlar Agentligi va GDPR singari institutlar yillar davomida sinovdan o'tib, inson sha'nini huquqiy jihatdan himoya qilishning ishonchli tizimiga aylangan. Bu tizim o'z-o'zidan vujudga kelmadi — u ko'plab xatolar, islohotlar va siyosiy irodaning to'plangan mevasidir.

Biroq Yevropa tajribasini ideallashtirishdan ham saqlanish lozim. Migratsiya inqirozi, terrorizmga qarshi kurash bahonasida kengaytirilgan nazorat, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali amalga oshirilayotgan ommaviy kuzatuv — bularning barchasi YI ichida ham inson huquqlariga jiddiy tahdid solmoqda. Gretsiya va Italiya qabul markazlarida Yevropa Inson Huquqlari Sudi qayta-qayta buzilishlarni qayd etgani, Fransiyadagi favqulodda holat normalariga aylangani, yuz tanish texnologiyalarining etnik profilingga olib

kelishi ehtimoli — bularning barchasi rivojlangan demokratiya ham bu yo'lda doimiy hushyorlik talab qilishini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlash borasida o'z yo'lini izchil bosib bormoqda. 2023-yil yangi Konstitutsiyasining 13- va 14-moddalarida insonning sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgani, 18- va 19-moddalarda diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlangani — bu shunchaki badiiy so'z emas, balki davlat siyosatining umumiy yo'nalishini belgilovchi me'yoriy asosdir. 2020–2025-yillar Milliy strategiyasida belgilangan 80 dan ortiq chora-tadbir, sudyalarning hayot davomiyligiga tayinlanishi, prokuratura ustidan kuchaytirilgan sud nazorati, NNTlar faoliyatining huquqiy jihatdan yengillashtirilishi — bularning barchasi tizimli islohotlarning aniq ko'rsatkichlaridir.

Shu bilan birga, qiyosiy tahlil bir muhim haqiqatni ham ochib beradi: qonunning yaxshi yozilishi bilan uning hayotda qo'llanilishi orasidagi masofa ko'pincha juda katta bo'ladi. Raqamli huquqlar, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali kuzatuv kabi masalalar O'zbekistonda hali yetarli darajada huquqiy tartibga solinmagan. Holbuki, bu sohalar nafaqat kelajak, balki ayni bugungi kun muammolaridir ya'ni fuqarolarning onlayn faoliyati kuzatilishi, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, deepfake texnologiyasi orqali obro'ga zarar etkazish — bularning barchasi amaldagi qonunchilik doirasida yetarli himoyaga ega emas.

YI va O'zbekiston tajribasini bir-biriga qo'yib taqqoslaganda yana bir muhim xulosaga kelish mumkin: inson huquqlarini ta'minlash faqat davlat zimmasidagi vazifa emas. Fuqarolik jamiyati, mustaqil media, NNTlar va xalqaro monitoring mexanizmlari bu tizimning teng huquqli ishtirokchilaridir. "Ezgulik", "Huquqiy Tayanch" singari tashkilotlarning faoliyati O'zbekistonda fuqarolik nazoratining asta-sekin kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bu tendentsiyani davlat qo'llab-quvvatlashi — raqobat sifatida emas, balki hamkorlik sifatida ko'rishi — inson huquqlari tizimini yanada mukamallashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, inson huquqlarini ta'minlash bir martalik islohotning natijasi emas — bu davom etuvchi jarayon. Yevropa Ittifoqi bu yo'lda yuzlab yillar tajriba to'plagan va hanuz yangi muammolar bilan kurashmoqda. O'zbekiston esa islohotlar yo'lida sezilarli qadamlar tashlab, xalqaro hamjamiyatning munosib ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Ikki tajribaning eng muhim umumiy xulosasi shuki: inson huquqlari faqat kafolatlanmaydi — ular doimiy himoya qilinadi, kuzatiladi va yangilanib boriladi. Yuqorida bayon etilgan tahlildan kelib chiqib, bir qator huquqiy-amaliy takliflar ilgari suriladi. Inson huquqlarini ta'minlovchi normativ bazani xalqaro standartlar bilan izchil uyg'unlashtirish maqsadida BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktiga ixtiyoriy protokollarni ratifikatsiya qilish, shartnomaviy organlarga hisobot berishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish davr taqozosi bo'lib turibdi. Ombudsman institutining mavjudligi zarur shart bo'lsa-da, bu yetarli shart emas: jabrlanuvchiga bevosita huquqiy himoya beruvchi, mustaqil va ixtisoslashtirilgan tribunal yoki huquqiy himoya mexanizmini tashkil etish YI tajribasi ko'rsatgan zaruriyatdir. Raqamli huquqlar sohasida — internet erkinligi, shaxsiy ma'lumotlarning muhofazasi, sun'iy intellekt texnologiyalarining shaxsiy hayotga ta'siri — hozircha maxsus tartibga soluvchi qonunchilik mavjud emasligi aniq huquqiy bo'shliq sifatida namoyon bo'lmoqda; GDPR andozasida ishlab chiqiladigan milliy qonun bu bo'shliqni bartaraf etishning eng samarali yo'li bo'la oladi. Bundan tashqari, sud tizimining real mustaqilligini ta'minlash uchun sudyalarni tayinlash, lavozimdan ozod qilish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibini yanada shaffof hamda jamoatchilik nazoratiga ochiq qilish, advokatura institutining teng huquqli ishtirokini mustahkamlash zarur. Nihoyat, fuqarolik jamiyati — mustaqil nodavlat tashkilotlar, media organlari, xalqaro monitoring institutlari — inson huquqlarini ta'minlash tizimining siyosiy raqibi emas, balki to'laqonli hamkori sifatida ko'rilishi va ular faoliyati uchun huquqiy shart-sharoitlar izchil kengaytirib borilishi lozim.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBAALAR:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) – <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
2. Yevropa inson huquqlari konvensiyasi (1950) – <https://www.echr.coe.int>
3. Yevropa Ittifoqining Fundamental huquqlar xartiyasi – <https://fra.europa.eu/en/charterpedia>
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – <https://lex.uz/docs/78710>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6252-sonli Farmoni (22.06.2021) – <https://lex.uz/docs/5482157>
6. Oliy Majlis Ombudsmani rasmiy sayti – <https://ombudsman.uz>
7. Human Rights Watch, Uzbekistan – <https://www.hrw.org/asia/uzbekistan>
8. United Nations OHCHR – <https://www.ohchr.org>